



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN: YER RESURSLARINI BOSHQARISH

MAVZU

10

**RESPUBLIKA YERDAN
FOYDALANISHNING MAVJUD TIZIMI**



RO'ZIBOYEV S.B



**Yer resurslarini boshqarish
kafedrasi dotsenti, PhD**





REJA

1.Yerdan foydalanishning mavjud tizimi tushunchasi

2. Yerdan foydalanishning mavjud tizimida hisobga olinadigan elementlar .

МАВЗУНИ МУСТАҚИЛ ЎЗЛАШТИРИШ УЧУН ТАВСИЯ ҚИЛИНАЁТГАН МАНБАЛАР ВА АДАБИЁТЛАР

Асосий:

1. Ben McFarlane, Nicholas Hopkins. **Land Law**: Text, Cases, and Materials. OUP Oxford, 2012
2. М.Х. Рустамбоев ва бошқ. **Ер ҳуқуқи**. Дарслик – Т.: Тошкент давлат юридик институти, 2002. – 237
3. **Земельное право республики Узбекистан**. Учебник. Под. ред. М.Х. Рустамбаева. ҳуқуқи. Т.: ТДЮИ, 2007. -215 стр.
4. А. Нигматов. **Ер ҳуқуқи**. Ўқув қўлланма. – Тошкент.: “Ислон Университети”, 2001. – 191б.
5. А. Нигматов. **Земельное право**. Учебное пособие – Т.: “Ислон Университети”, 2001. – 189 б.
6. **Узоқова Г.Ш. Аҳоли пункти ерларидан фойдаланиш ҳуқуқи. Т.: ТДЮИ, 2006.-117 б.**
7. М. Mirzaabdullaeva, А. Muqimov, Z. Xafizova. **Yer huquqi**, O'quv qo'llanma. -Т.: TIMI, 2016.- 196 б
8. **Земельное право**: Учебник / С.А. Боголюбов, Э.А. Галиновская; Учебник./Под ред. С.А. Боголюбова – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2004.-400 стр.

Қўшимча:

1. Ўзбекистон Республикасининг **Ер кодекси**, Ўзбекистон, Т.: 1998
2. Ўзбекистон Республикасининг **қонун ости ҳужжатлари**

Интернет ресурслари

1. [http:// www. cousera.org /](http://www.cousera.org/)
2. <http:// www, harvard.edu/>
3. [http://www, Ziyonet. Uz/.](http://www, Ziyonet. Uz/)

Yer resurslari jamiyat faoliyatining barcha sohalarida foydalaniladi, u hattoki yerdan foydalanishni vaqtinchalik ham to'htata olmaydi. Ammo yer resurslaridan oqilona foydalanish muammosi bugungi kunga qadar dolzarb bo'lib qolavergan. Yerdan foydalanishni boshqarishdagi kamchiliklar va ulardan samarali foydalanish hamda qayta tiklash bo'yicha zaruriy moliyalash resurslarini bo'lmaganligi sababli keyingi yillari yerlardan ma'lum darajada tizimsiz foydalanish yerlarni, ayniqsa qishloq xo'jalik yerlarini katta miqdorlarda buzilib ketishiga olib keldi.

“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2021 yildagi PQ-5006-son

a) Qishloq xo‘jaligi vazirligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanishni tashkil etish va muhofaza qilish sohasida samarali davlat nazoratini amalga oshirishda:

qishloq xo‘jaligi yerlari va ekinlarini monitoring qilish;

qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish;

qishloq xo‘jaligi yerlarining muhofaza qilinishini ta‘minlash;

qishloq xo‘jaligi yerlarining me‘yoriy qiymatini va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash;

Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 15-dekabr 2021 yildagi PQ-52-son qarori yerdan foydalanishning bugungi kundagi mavjud tizimin bilan bog‘liq masalalarga kursatib turadi.

Худудлар келимида эркин иқтисодий зоналар (ЭИЗ), кичик саноат зоналар (КСЗ) ва кластерлар сони



Bugungi kunda yerdan foydalanish ijtimoiy-iqtisodiy voqeilik sifatida, yer resurslaridan foydalanishning ijtimoiy ahamiyatli jarayon sifatida yetarli o'rganilgan emas, uning mohiyati, tizimli tashkil etish va boshqarish to'la ochilgan emas, ushbu tushunchaga to'la aniqlik kiritilgan emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida yerdan foydalanish tushunchasi keltirilmagan. Ensiklopedik lug'atlarda u odatda belgilangan tartibda yerdan foydalanish, ya'ni uni iqtisodiy-huquqiy qirralariga urg'u berilgan holda e'tirof etiladi. Maxsus adabiyotlarda hamda amaliyotda yerdan foydalanish tushunchasida ijtimoiy-iqtisodiy voqeilik sifatidagi tushunchadan farq qiladigan qoidalar uchraydi. Ba'zan yerdan foydalanish joyda aniq bir chegaralarga ega bo'lgan hamda foydalanish uchun ma'lum bir yuridik va jismoniy shaxsga berilgan ob'yektning yer uchastkasi sifatida e'tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentabrdagi **“Dehqon xo‘jaliklari tashkil etishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”** PQ-373-sonli qarori ijrosi yuzasidan Kadastr agentligi tomonidan amalga oshirilgan Mazkur qarorning 1-ilovasida **Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda 2023-yil uchun reja 96 655 gektar** fermer xo‘jaliklari va klasterlar foydalanishidagi paxta va g‘alladan qisqartirilgan hamda aholi punktlariga yaqin va suv ta‘minoti yaxshi bo‘lgan yerlar hisobidan fuqarolarga ochiq elektron tanlov orqali ijara huquqi asosida beriladigan ekin maydonlaridan tanlanishi va tuman (shahar) hokimliklarining zaxirasiga belgilangan tartibda qaytarilishi va davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilgan.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 10.09.2022 йилдаги ПҚ-373-сонли қарорига асосан 2023 йил учун ер майдонларини захирага қайтариш тўғрисида

М А Ё Л У М О Т


									15.05.2023 йил ҳолатига	
№	Худудлар номи	2023 йил учун деҳқон хўжалиги ташкил этиш учун режа (гектар)	қўшимча режага асосан вилоят ҳокимининг қарори билан захирага олинган лойиҳалар					UZKAD дастурида (ҳокимлик номига рўйхатдан ўтказиш)		
			ф-х сони	контур сони	майdonи	режага нисбатан фарқи +,-	Қабул қилинган вилоят ҳокимининг қарорлари сони	сони	майdonи	қарорга нисбатан фарқи +,-
Республика жами		92655	10 651	24 880	93 892	1 237	451	20 642	93 333	-559
1	Қорақалпоғистон Рес	6020	152	3 288	7 004	984	18	3 200	7 004	
2	Андижон вилояти	6052	1 404	1 745	6 199	147	16	1 476	6 159	-40
3	Бухоро вилояти	6108	885	2 451	6 108		34	1 114	6 108	
4	Жиззах вилояти	4460	506	775	4 460		46	741	4 460	
5	Қашқадарё вилояти	10530	1 060	1 260	10 022	-508	62	1 207	10 022	
6	Навоий вилояти	3195	374	535	3 195		10	553	3 195	
7	Наманган вилояти	9056	679	1 838	8 952	-104	18	1 734	8 730	-222
8	Самарқанд вилояти	7586	1 544	2 695	8 004	418	43	2 464	8 004	
9	Сурхондарё вилояти	8476	594	1 639	8 029	-447	71	1 624	8 000	-29
10	Сирдарё вилояти	4200	250	489	4 425	225	21	473	4 425	
11	Тошкент вилояти	9088	1 024	2 541	9 609	521	55	1 313	9 341	-267
12	Фарғона вилояти	11939	1 603	2 803	11 941	2	55	1 872	11 941	
	Хоразм вилояти	5945	576	2 821	5 945		2	2 871	5 945	

Shuningdek, **Qarorning 4-bandida** zaxiraga olingan yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlari tuman (shahar) hokimliklari buyurtmasiga asosan Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilagan.

Vazirlar Mahkamasining **“Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”** 2022-yil 14-fevraldagi 709-sonli qarorining 42-43-bandlariga asosan ijrochi (*O'zdavyerloyiha*) tomonidan tanlov g'olibi bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkasi bo'yicha tasdiqlangan ijara shartnomasini yuboradi, shunga asosan Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari tomonidan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazishi belgilangan.

Табиатдан фойдаланиш ТИЗИМИ

Tabiatdan foydalanish kichik tizimlari



Yer kadastrida yerdan foydalanish deganda asosiy yer-kadastr birligi tushuniladi. Boshqa holatlarda ba'zan “yerdan foydalanish” termini yerlardan xo‘jalik nuqtai nazardan foydalanishning texnologik jarayoni tushuniladi. Bu tushunchalarning barchasi ijtimoiy ahamiyatli voqeilik sifatidagi “yerdan foydalanish” tushunchasi bilan hech bir umumiylikka ega emas, ular nihoyatda chegaralangan, tor, bugungi jarayonda va tabiiy majmuada yerning to‘laqonli o‘rniga javob beraolmaydigan tushunchalardir.

Fikrimizcha, yerdan foydalanish tushunchasiga S.A.Tkachuk tomonidan anchagina to‘laqonli va ravshanroq tushuncha berilgan: “Yerdan foydalanish-bu tabiat qonunlarini iqtisodiy qonunlar bilan bog‘liqligini hisobga olgan xolda ushbu iqtisodiy qonunlardan ongli tarzda foydalanish asosida ob‘yektiv rivojlangan yer resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy shakllari hamda ishlab chiqarish usullarining to‘plamidir”



***Этиборларингиз учун
рахмат!***